

Date: 27th April-2025

**O'QUVCHILARGA JUN VA IPAK TOLALI GAZLAMALAR VA ULARNI
OLINISHINI O'RGATISHDA AMALIY MASHGULOT XONALARINI TASHKIL
QILISH**

Ismailova Momogul Hamraboy qizi

Urganch davlar pedagogika instituti

“Texnologik ta’lim kafedrası o‘qituvchisi”

Qurbonova Hilola Ravshanbek qizi

Urganch davlar pedagogika instituti

Texnologik ta’lim 3-kurs talabasi

Nuraddinova Ozoda Muxsin qizi

Urganch davlar pedagogika instituti

Texnologik ta’lim 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnologiya ta’limi fanidan mashg’ulotlarni tashkil qilish o‘quvchilarni muayyan mehnat malakasi va ko‘nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va ularda mehnatga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mehnat darslarini tashkil qilishning bir qismini korishingiz mumkin o‘qituvchining o‘z fanini yaxshi bilishi o‘quvchilarning muvaffaqiyat bilan o‘qitishning eng muhim shartlaridan biridir.

Аннотация: В данной статье можно утверждать, что организация занятий по предмету “Технологическое образование” не только служит для формирования у учащихся определенных трудовых навыков и навыков, но и имеет очень важное значение в развитии их умственных и творческих способностей и воспитании у них отношения к труду. является одним из условий.

Annotation: In this article, you can argue that the organisation of classes in the subject of Technology Education not only serves to equip students with certain labour skills and skills, but also is very important in developing their mental and creative abilities and educating them about their attitude to work. The teacher’s knowledge of his subject is the most important factor in the successful teaching of students and is one of the conditions.

Kalit so‘zlar: tabiiy ipak, tola, zig‘ir, polimer

Ключевые слова: натуральный шелк, волокно, лен, полимер

Keywords: natural silk, fibre, linen, polymer

Kirish. O‘z fanini yaxshi bilgan o‘qituvchi biror buyum narsani tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirish va ko‘rsatib bera oladi, bu esa mehnat amallarini o‘quvchi to‘g‘ri idrok etishni ta’minlaydi. O‘qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, bolalarga ko‘rsatadigan buyum narsani o‘qituvchining o‘zi oldindin tayyorlab ko‘rishi lozim, chunki buyum narsani tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo‘llashga to‘g‘ri kelib qolishi mumkin. Agar o‘qituvchining o‘zi narsalarni oldindin tayyorlasa



Date: 27th April-2025



o'quvchilarga uni tayyorlatishning hiyla mukammalashgan usul va usullarini ko'zda tutgan bo'ladi. Har bir dars o'quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi xamda mustaxkamlashi, ularda barsaror ijobiy ko'nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim.

O'quvchilardagi texnologiya fanining ma'lum turiga bo'lgan mayl va qiziqishnio'z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

O'quvchilarga texnologiya fanini o'qitish va tarbiyalash ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Quyi sinf o'quvchilariga texnologiya faninio'qitish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko'nikmalari natijasi bo'lib qolmay, balkio'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir. Kichik maktab o'quvchilarining texnologiya faniga amaliy tayyorlashda kuzatish qobiliyatini mashq qildirishning imkoniyatlari juda katta. Bular materialga ishlov berish jarayonida uningo'zgarishini kuzatish, turli asboblarning turli ishlab chiqarish hamda mehnat vaziyatlarida ish xususiyatini kuzatish, mehnat operatsiyalarining maqsadga muvofiqligini amaliy aniqlashdir. o'zining hamda o'rtoqlarining ishini kuzatish orqalio'quvchilar konstruktorlik yechimlarini, tayyor buyum va ularning detallari pardozining bajarilish usullari va sifatini taqqoslaydi, solishtiradi, baholaydi. yordamchi va ishlov berish operatsiyalari, mehnat usullarining sodda, qulay va osonligi, ishga sarflanuvchi vaqt miqdori kabi ko'rsatkichlar o'quvchilar nazaridan chetda qolmaydi. Bularning barchasi birgalikda faol fikrlash faoliyatini talab etadi vao'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ko'maklashadi. Boshlang'ich sinfo'quvchilari tomonidan texnologiya darslarida bajariluvchi kuzatishlar va eng oddiy tajribalar barcha analizatorlarning, xususan, har biro'quvchi harakat apparatining bir vaqtda birgalikda qo'llanishiga asoslangan. Bu kichik maktab o'quvchilariga amaliy masalalarni hal etish uchun muhim bo'lgan turli materiallarning xususiyati va sifati (yumshoq-qattiq; yengil-og'ir; zich-g'ovak; mustahkam-nozik; tiniq, oq, rangli va hokazo), shuningdek, har bir materialning ishlov berishdagi qarshilik xususiyatlari to'g'risidagi savollarga yanada aniqroq va to'g'riroq javob berishga imkon beradi. Texnologiya darslarida turli mehnat faoliyati turlaridan foydalanish o'quvchilar tomonidan to'planuvchi tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarining muhim asosini tashkil etadi.

Birinchi navbatda sinf mehnat darslarida, odatda tayyordanishi kerak bo'lgan buyum narsaning namunasi ko'rsatiladi. Bunda sinfo'quvchilari uchun real, buyum narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, o'quvchilar unga qarab mazkur buyum narsa qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi mana shundan tayyorlash mumkinliginio'ylab oladilar.

Tikish darslarida beriladigan politexnik bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarni tasavvurlarini insoniyat hayotida muhimo'rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali

Date: 27th April-2025

materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi.

Tola – uzunligi ko‘ndalang kesimidan ancha katta egiluvchan, ingichka va pishiq jism. Ip, ip gazlama to‘qilmaydigan materiallar va hokazolar tayyorlash uchun ishlatiladi. Mayda qismlarga ajralmaydigan yakka tola (paxta, jun) elementar, o‘zaro pektin moddalar bilan birikkan tolalar (zig‘ir, kanop, jut va hokazo) texnik tola deyiladi. Tola ikki katta guruhga: tabiiy va kimyoviy tolalar guruhiga bo‘linadi. Kimyoviy tolalarning sun‘iy va sintetik xillari bo‘ladi. Tabiiy tolalar – to‘qimachilik ishlab chiqarishning asosiy xom-ashyosi hisoblanadi. Tabiiy to‘qimachilik tolalarining o‘simliklar (paxta, zig‘ir va boshqalar)dan, jonivorlardan olinadigan (jun, ipak) va mineral (asbest) xillari bor. Kimyoviy to‘qimachilik tolalari sun‘iy (masalan sellyuloza) va sintetik (masalan, poliamid polimeridan olinadigan) tolalarga bo‘linadi.

Gazlamalar tayyorlanadigan tolalarning asosiy xossalari Tolalarning asosiy xossalari jumlasiga uzunligi, yo‘g‘onligi, mustahkamligi, cho‘zilishdagi uzayishi, gigiyenik xossalari kiradi. Tolalar uzunligi — tekislangan tolaning ikki uchi orasidagi masofani bildiradi. U millimetr (paxta tolas), santimetr (jun tolas) yoki metr (kimyoviy tolalar) birliklarida ifodalaniladi.

Jun to‘qimachilikda ishlatiladigan tabiiy tola. Ishlov beriladigan asosiy jun quy juni hisoblanadi. Jun tolas, asosan, oqsil modda keratindan iborat. Jun tolalarining momiq, oraliq qil, to‘q, qil xillari mavjud. Momiq eng qimmat, ingichka, elastik, mayin jingalak tola hisoblanadi.

Ipak tolali gazlamalarning olinishi. Tabiiy ipak. Tabiiy ipak tolas asosan tut ipakqurtidan olingan pillalarni qayta ishlab olinadi. Ipak qurt o‘zining rivojlanish jarayonida to‘rtta bosqichdano‘tadi: pilla qurtining kapalagi tuxum soladi, bu tuxumdan pilla qurti paydo bo‘ladi va ularning ichki a‘zolaridan ipak ishlab chiqaradi. Qurt yig‘ilgan ipak moddasini tashqariga o‘g‘zidagi bezlar orqali siqib chiqarib, o‘z atrofini to‘lao‘rab turuvchi pillani hosil qiladi va uning ichida g‘umbakka aylanadi. G‘umbakdan kapalak paydo bo‘ladi. U pilladan tashqariga chiqib tuxum soladi. Shunday qilib, pilla qurtining rivojlanish jarayoni takrorlanadi. Pillakashlik fabrikalarida pillao‘rash uskunalari chuvalanadi. Chuvalash paytida bir necha pilla ipakning uchi birlashtiriladi. Natijada, xom ipak hosil bo‘ladi.

Xom ipak iplari oqsil — serisin bilan bir-biriga birikkan bir necha pilla ipidan iborat. Pillalarni yig‘ish va tortish paytida hosil bo‘lgan chiqindilar (ustki chigal qatlamlar, pilla po‘stloqlarining qoldiqlari, teshilgan va chuvib bo‘lmaydigan pillalar) dan yigirilgan ipak olishda foydalaniladi.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o‘quv xonalari sanitariya-gigiena talablariga ham javob berishi kerak. Xonaning harorati 19-21°C bo‘lishi va xonao‘z vaqtida shamollatib turilishi lozim. Xonaning havosi deraza, eshik orqali hamda mexanik usulda ventilyatorlardan foydalanib almashtiriladi. Bundan tashqari qish faslida xonani maxsus isitish tarmoqlari yordamida isitiladi. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o‘quv xonalari yaxshi yoritilishning muhim ahamiyati bor. Mashinalar derazaga nisbatan yonlamasiga



Date: 27th April-2025



yoki 450 qiyalikda qo 'yilishi kerak, shunda mashinaga yorug 'lik to 'g 'ri tushib turadi. Derazalar oldiga balando'simliklar qo 'yilmasligi, oynalar tozalab yuvilgan bo 'lishi, rozetkalar vodoprovodga, kanalizatsiyaga yaqino'rnatilmasligi lozim. Ish joylari yonigao'ziga mos bo 'lgan mehnat xavfsizligi qoidalari osib qo 'yiladi. Xonada baxtsiz xodisa ro 'y berganda zarur bo 'ladigan birinchi yordam vositalari dori qutisi albatta bo 'lishi kerak. Dori quti yonida yaqin davolash maskanining manzili va unga borish chizmasi osib qo 'yilgan jadval turishi kerak.

Xulosa. Texnologiya darslarining muhim ahamiyati shundaki, o'quvchilarning ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga ko 'maklashadi, ularning tafakkurlarini rivojlantirib, o'rganilgan bilim, ko 'nikma va malakalarni hayotda qo 'llay olish layoqatini shakllantiradi. Texnologiya fani darslarining asosiy qismini amaliy mashg 'ulotlar tashkil qiladi. Amaliy mashg 'ulotlarda nazariy mashg 'ulotlarda olingan bilimlarni amalda, hayotiy tajribalar asosida mustahkamlanadi. Bundo o'quvchilar ijodiy ishlaydilar, yangi g 'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash sifatleri tarkib topadi. Amaliy mashg 'ulotlar jarayonida o'quvchilarga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo 'llovchi maqsadlarni singdiramiz. O 'quvchilarni amaliy mashg 'ulotga yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan ishlashga jalb qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham texnologiya darslarida aaliy mashg 'ulotlarni tashkil qilish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Texnologiya va uni o'qitish metodikas o'quv qo 'llanma / M. Tilavova.- Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021.
2. Texnologiya: Umumiy o'rta ta 'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik: Mualliflar Sh. Sharipov, O. Qo 'ysinov, Q. Abdullayeva
3. Mehnat ta 'limi yonalishlar bo 'yicha o'qituvchiga qo 'llanma
4. Muslimov N.A., Sharipov Sh. "Mehnat ta 'limi kasb tanlashga yo 'llashni o'qitish metodikasi".